

3. Ford, M., & Gomez, J. (2020). "Artificial intelligence in education: Present and future applications." *Educational Technology Research and Development*, 68, 191-212.
4. Peters, M. A., & Roberts, P. (2012). "The Virtues of Openness: Education, Science, and Scholarship in the Digital Age." Paradigm Publishers.
5. Siemens, G., & Long, P. (2011). "Penetrating the Fog: Analytics in Learning and Education." *EDUCAUSE Review*, 46(5), 30-40.
6. Khujaniyazova G.Yu .(2023) "Enhancing foreign language training using information and communication technology" International Conference on Interdisciplinary Studies and Scientific Research Hosted London, (p83-93).

PEDAGOGIK VA TA'LIM TEXNOLOGIYALARNING UMUMIY TA'RIFI VA ASOSIY TUSHUNCHALARINING MAZMUN MOHIYATI

Ashurova Laylo

*Qarshi Muhandislik iqtisodiyot institute "Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizgi"
kafedrasi katta o'qituvchisi*

Annotatsiya. Maqolada Oliy ta'lim muassasasida ta'lim texnologiyasi talabani qobiliyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda mutaxassislarni tayyorlash mazmuni, ta'lim maqsadiga mos ravishda mazmuni loyihalash hamda pedagogik uslublar, shakllar va o'qitish usullarini tadbiq etishga yo'naltirilgan psixologik, umumpedagogik, didaktik va shaxsiy uslubiy tartiblar asosida amalga oshiriluvchi o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro ta'sir ifodalangan.

Tayanch so'zlar: Ta'lim texnologiyasi, pedagogik texnologiya, assotsiativ-reflektor, bixevioristik, interiorizator,

Kirish. Hozirgi kunda XXI asr yuksak texnologiyalar zamoni, tafakkur asri, yalpi axborotlashuv asri, globallashuv davri deb ta'rif etilmoqda.

Globallashuv - insoniyatning ongu shuuri, tafakkuri samarasi sifatida vujudga kelgan jahon miqyosidagi umumiy jarayon, u chegara va hududlarni bilmaydigan, tuzumlarni tan olmaydigan, uzluksiz kuchayib va rivojlanib borayotgan jarayondir. Ana shunday globallashuv davrida har qanday davlatning rivojlanishi, uni rivojlangan davlatlar qatoridan mustahkam o'rin olishi, birinchi navbatda davlatning

intellektual salohiyati, yosh avlod ta'lim-tarbiyasi va umuman zamonaviy kadrlar tayyorlash tizimiga bog'liqdir.

Oliy ta'lim muassasasida ta'lim texnologiyasi – talabaning qobiliyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda mutaxassislarni tayyorlash mazmuni, ta'lim maqsadiga mos ravishda mazmuni loyihalash hamda pedagogik uslublar, shakllar va o'qitish usullarini tadbiq etishga yo'naltirilgan psixologik, umumpedagogik, didaktik va shaxsiy uslubiy tartiblar asosida amalga oshiriluvchi o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro ta'sir tizimidir.

Ta'lim texnologiyasi – o'quvchining shaxsiy sifatlarini, kasbiy, umumkasbiy va umummadaniy kompetentligini shakllan-tirish va rivojlantirishga qaratilgan o'qitish va tarbiyalash texnologiyasidir.

Pedagogik texnologiya - yuqori darajadagi samaradorlikni ta'minlovchi, pedagogik qonuniyatlar, maqsadlar, prinsiplar, mazmun, shakl, uslublar va o'qitish vositalaridan hamda tarbiyalash usullaridan tashkil topgan loyihalash va mos ravishda ushbu texnologiyani amaliyotda qo'llash tizimidir.

Pedagogik texnologiya – ta'limni ilmiy loyihalash va uning aniq kafolatli muvaffaqiyatini ta'minlovchi tizimdir.

Pedagogik texnologiya quyidagi belgilar bilan xarakterlanadi:

- o'qitish va tarbiyalash maqsadlarini ketma-ket ishlab chiqish;
- o'zlashtirishga mo'ljallangan axborotlarni tarkiblash, tartibga solish va zichlash;
- o'qitish va nazorat qilishning didaktik va texnik, shu jumladan kompyuter vositalaridan majmualiy foydalanish;
- o'qitish va tarbiyalashning tashxis funksiyasini kuchaytirish;
- o'qitishning yetarli darajadagi yuqori sifatini kafolatlash.

O'qitishning pedagogik texnologiyalari tasnifi:

- **Foydalanish darajasiga ko'ra:** *umumpedagogik, shaxsiy uslubiy (fan bo'yicha) va lokal (modulli);*
- **Falsafiy asolariga ko'ra:** *ilmiy va diniy, gumanistik va avtoritar;*

- **Tajribani o‘zlashtirishning ilmiy konsepsiyasiga ko‘ra:** *assotsiativ-reflektor, bixevioristik, interiorizator, rivojlantiruchi;*
- **Shaxs tuzilishiga mo‘ljallanganligi bo‘yicha:** *axborot (bilim, uquv va malakani shakllantirish), operatsion (aqliy harakat qobiliyatlarini shakllantiruvchi), evristik (ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiruvchi), amaliy (real-amaliy sohada malakani shakllantirish);*
- **An’anaviy o‘qitish tizimini modernizatsiyalash xarakteriga ko‘ra:** o‘quvchi faoliyatini faollashtirish va intensivlashtirish texnologiyasi; o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi faoliyatni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish asosidagi texnologiya; o‘quv materialini didaktik qayta ishlash asosidagi texnologiya.

Bu texnologiya ushbu belgilari bo‘yicha tasniflanishi mumkin:

- ✓ yetakchi maqsad va vazifalar bo‘yicha;
- ✓ o‘qishni tashkil etish shakliga ko‘ra;
- ✓ asosiy o‘qitish uslubiga ko‘ra.

O‘qitish texnologiyasining didaktik tarkibi quyidagilarni hisobga oladi:

- foydalanish darajasi, falsafiy asosi
- bilimni o‘zlashtirishning yetakchi konsepsiyasi;
- ta’lim mazmunining farqlanuvchi xarakteri;
- o‘qitishni tashkil etish shakli, yetakchi o‘qitish uslubi, o‘quvchilar kategoriyasi.

Xulosa qilib aytganda, loyihalar uslubi yuqori pedagogik texnologiyalarga kiradi va u o‘qituvchidan xam, talabdan xam katta tayyorgarlikni, talabning butun o‘quv faoliyati bo‘yicha jiddiy koordinatsiyasini talab etadi. Shu bilan bir qatorda loyihalar uslubi talabani intellektual rivojlantirishga, unda tanqidiy va ijodiy fikr-tuyg‘ularni shakllanishiga yordam beradi. Bunday tizimli ravishdagi hamkorlikdagi faoliyat yoshlarda nafaqat mustaqillikni shakllanishiga, balki ularda o‘z ishiga hamda guruh faoliyatiga javobgarlikni oshishiga xam olib keladi. Loyihalar uslubi har qanday murakkab didaktik vazifani birdan yechishga mo‘ljallangan universal uslub emas. U bir butun didaktik tizim bo‘lib, shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni tashkil

etishning bir elementi hisoblanadi. Shu sababli loyihalar uslubini zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimi qo'yayotgan talablarga javob beruvchi ta'lim sohasidagi eng samarali uslublardan biri sifatida qarash mumkin.

Adabiyotlar

1. Пахомова Н.Ю. Метод учебного проекта в образовательном учреждении: пособие для учителей и студентов педагогических вузов. М., 2003.

2. Зайцев В. С. Метод проектов как современная технология обучения: историко-педагогический анализ / В. С. Зайцев // Вестник Челябинского государственного педагогического университета. — 2017. — № 6. — С. 52–62.

TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA MILLIY KONTENTLAR VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Shukurov Vasliddin Sobirjon o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali assistenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim jarayonida milliy kontentlardan foydalanish va axborot texnologiyalarining ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Qolaversa ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning o'rni va milliy kontentlarni ta'limda samarali qo'llash orqali bilim olish jarayonini boyitishga bo'lgan ta'siri yoritiladi. Shuningdek, milliy kontent asosida ta'lim platformalarini yaratishning dolzarbligi va ta'lim tizimiga ko'rsatadigan ijobiy ta'siri haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: milliy kontent, axborot texnologiyalari, raqamlashtirish, ta'lim platformalari.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim sohasi jadal sur'atlar bilan rivojlanib raqamli texnologiyalar ta'lim jarayoniga chuqur integratsiya qilinmoqda. Shu bilan birga, milliy kontentlardan foydalanish milliy o'zlikni anglash, madaniy merosni saqlab qolish va o'quv jarayonini samarali tashkil etishda muhim omil bo'lib kelmoqda.

So'ngi yillarda milliy kontentlar va milliy axborot makonini rivojlantirish borasida fikr mulohazalarni ko'plab uchratmoqdamiz. Jumladan Prezidentimiz